



AN AXIOLOGICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN GENDER-BASED VIOLENCE AND HUMAN DIGNITY

Gulomnazir Kholmatkhonovich Karimov

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,
Independent Researcher, Fergana State University
Science ID: FFR-0726-0161
E-mail: karimovbek701@gmail.com
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender-based violence, human dignity, axiology, social justice, gender equality, human rights, social philosophy, value system, gender culture, humanism.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article provides a socio-philosophical analysis of the axiological relationship between gender-based violence and human dignity. It examines contemporary forms of gender-based violence and their negative impact on human dignity, social justice, and the system of human rights. Particular attention is paid to the axiological foundations of the reforms implemented in New Uzbekistan aimed at promoting gender equality and enhancing human dignity. The study argues that the effective prevention of gender-based violence requires not only the improvement of legal mechanisms but also the development of moral values, legal culture, and gender awareness within society.

GENDER ZO'RAVONLIGI VA INSON QADRI MUNOSABATLARI TAHLILI

G'ulomnazir Xolmatxonovich Karimov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: karimovbek701@gmail.com
Ilmiy identifikatsiya raqami: FFR-0726-0161
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gender zo'ravonligi, inson qadri, aksiologiya, ijtimoiy adolat, gender tengligi, inson huquqlari, ijtimoiy

Annotatsiya: Maqolada gender zo'ravonligi va inson qadri o'rtasidagi munosabatlarning aksiologik mohiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender zo'ravonligining

falsafa, qadriyatlar tizimi.

zamonaviy jamiyatdagi namoyon bo'lish shakllari, uning inson qadri, ijtimoiy adolat va inson huquqlari tizimiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri falsafiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish siyosati hamda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning aksiologik asoslari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan gender zo'ravonligining oldini olishda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy ong va gender madaniyatini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ГЕНДЕРНОГО НАСИЛИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА

Гуломназир Холматхонович Каримов

*Доктор философии (PhD) по философским наукам,
независимый исследователь Ферганского государственного университета*

Научный идентификационный номер: FFR-0726-0161

E-mail: karimovbek701@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендерное насилие, человеческое достоинство, аксиология, социальная справедливость, гендерное равенство, права человека, социальная философия, система ценностей, гендерная культура, гуманизм.

Аннотация: В данной статье с социально-философских позиций анализируется аксиологическая сущность взаимосвязи гендерного насилия и человеческого достоинства. Исследуются современные формы проявления гендерного насилия, его негативное влияние на человеческое достоинство, социальную справедливость и систему прав человека. Особое внимание уделяется аксиологическим основам проводимых в Новом Узбекистане реформ, направленных на обеспечение гендерного равенства и повышение достоинства человека. Обосновывается, что эффективное предупреждение гендерного насилия требует не только совершенствования правовых механизмов, но и развития нравственных ценностей, правовой культуры и гендерного сознания общества.

Kirish. XXI asrda inson qadri va gender tengligi masalalari global taraqqiyotning eng muhim jihadlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosida gender zo'ravonligi nafaqat huquqiy yoki

ijtimoiy muammo, balki insoniyatning barqaror rivojlanishiga, demokratik qadriyatlarning qaror topishiga hamda inson huquqlarining to'laqonli ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab aksiologik hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois gender zo'ravonligi fenomenini faqat jinoyat yoki oilaviy muammo sifatida emas, balki inson qadr-qimmati, erkinligi va ijtimoiy tenglik tamoyillarining buzilishi sifatida falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi [1]. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi jamiyatdagi zo'ravonlik fenomenining mazmuni, namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini sezilarli darajada murakkablashtirmoqda. Bugungi sharoitda zo'ravonlikni faqat jismoniy tajovuz doirasida talqin etish uning haqiqiy ko'lamini to'liq aks ettirmaydi. Raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya makoni, iqtisodiy munosabatlar va institutsional boshqaruv tizimlaridagi evolyutsion rivojlanishlar ta'sirida iqtisodiy, psixologik, axborot, kiber hamda institutsional zo'ravonlik kabi bilvosita, biroq ijtimoiy oqibatlari chuqur bo'lgan yangi ko'rinishlar shakllanmoqda. Ayniqsa, ayollar va qizlarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonlik holatlari shaxsning erkinligi, qadr-qimmati va fundamental huquqlariga tizimli tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'lib, ularni bartaraf etish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va institutsional yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etuvchi dolzarb masalaga aylanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har uch ayoldan biri hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duch keladi [2]. Aksiologik nuqtai nazardan gender zo'ravonligi insonning oliy qadriyat sifatidagi maqomini inkor etuvchi hodisadir. Aksiologiya insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida baholaydi. Shu sababli zo'ravonlik insonning erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va ijtimoiy subyekt sifatidagi maqomini cheklovchi salbiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan gender zo'ravonligi ijtimoiy adolat tamoyillariga ham zid keladi [3].

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida "Inson qadri uchun" tamoyili turadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mazkur konsepsiya inson manfaatlarini davlat siyosatining bosh mezon sifatida belgilaydi. Natijada gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish hamda zo'ravonlikning barcha shakllariga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi [4]. Bu maqolaning maqsadi gender zo'ravonligi va inson qadri o'rtasidagi munosabatlarni aksiologik jihatdan tahlil qilish, zamonaviy falsafiy konsepsiyalar asosida ushbu hodisaning mohiyatini ochib berish va uning oldini olishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Gender zo'ravonligi va inson qadri muammolari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Inson qadri konsepsiyasining nazariy asoslari Immanuel Kant tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning fikricha, inson hech qachon vosita

emas, balki har doim maqsad sifatida qaralishi lozim [5]. Aynan ushbu tamoyil zamonaviy inson huquqlari konsepsiyasining falsafiy asosini tashkil etadi. Gender tengligi va ijtimoiy adolat masalalarini tadqiq etishda Martha Nussbaumning imkoniyatlar (Capabilities) nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. U insonning erkin rivojlanishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi gender tengligi bilan uzviy bog'liq ekanligini ilmiy asoslaydi [6]. Judith Butler esa genderni biologik emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilib, gender zo'ravonligini hukmron ijtimoiy stereotiplarning mahsuli sifatida izohlaydi [7].

O'zbekistonlik olimlar orasida M.B. Bekmurodov, M.X. G'aniyeva, N.M. Latipova, Sh.M. Sodiqova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan gender tengligi, ijtimoiy himoya, inson qadri hamda ayollar huquqlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganilgan [8]. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gender zo'ravonligi ko'proq huquqiy yoki sotsiologik nuqtai nazardan yoritilgan bo'lsa-da, uning inson qadri bilan bog'liq aksiologik mohiyati yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik jihatdan ijtimoiy falsafa, aksiologiya, gender tadqiqotlari hamda inson huquqlari nazariyasining zamonaviy yondashuvlariga asoslanadi. Gender zo'ravonligi fenomenini inson qadri bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishda falsafiy va fanlararo metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini aksiologik yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda dialektik metod tashkil etdi. Aksiologik metod gender zo'ravonligining erkinligi, inson qadri va ijtimoiy adolat tizimiga ta'sirini baholash imkonini berdi. Strukturaviy-funksional tahlil orqali zo'ravonlikning oila, ta'lim, mehnat bozori va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot, xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi hamda rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi [9]. Shuningdek, tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro konvensiyalar, statistik hisobotlar, ilmiy monografiyalar hamda zamonaviy falsafiy adabiyotlar kontent-tahlil qilindi. Olingan ilmiy natijalar umumlashtirish va ilmiy interpretatsiya metodlari asosida tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari gender zo'ravonligini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan inson qadri tizimining buzilishi sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, zo'ravonlikning har qanday shakli shaxsning erkin rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi, uning ijtimoiy faolligini pasaytiradi hamda insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi aksiologik tamoyillarga zid keladi [10].

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, gender zo'ravonligi faqat oilaviy munosabatlar bilan chegaralanmaydi. U siyosiy, iqtisodiy, mehnat, ta'lim va raqamli kommunikatsiya tizimlarida

ham namoyon bo'ladigan ko'p omilli ijtimoiy hodisadir. Ayniqsa, raqamli platformalar rivojlanishi natijasida kiberbulling, onlayn ta'qib, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish va psixologik bosimning yangi shakllari vujudga kelmoqda [11].

Tadqiqot davomida gender zo'ravonligi va inson qadri o'rtasidagi quyidagi aksiologik bog'liqlik aniqlandi:

- zo'ravonlik insonning daxlsizligi va sha'nini buzadi;
- ijtimoiy tenglik tamoyiliga putur yetkazadi;
- fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi;
- jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni zaiflashtiradi;
- demokratik qadriyatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gender zo'ravonligining asosiy determinantlari faqat iqtisodiy omillar emas. Patriarxal stereotiplar, huquqiy madaniyatning pastligi, zo'ravonlikka nisbatan murosali munosabat, axborot manipulyatsiyasi va raqamli makondagi nazoratning sustligi ham ushbu hodisaning kengayishiga xizmat qilmoqda [12].

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar gender tengligini ta'minlashning institutsional asoslarini sezilarli darajada mustahkamladi. Xususan, ayollar huquqlarini himoya qilish, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar inson qadri konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda [13].

Tadqiqot davomida gender zo'ravonligining oldini olish bo'yicha quyidagi konseptual model ishlab chiqildi:

1. Inson qadri ustuvorligini barcha davlat siyosatining mezoniga aylantirish.
2. Gender tengligini huquqiy va institutsional jihatdan yanada mustahkamlash.
3. Ta'lim tizimida gender madaniyati va inson huquqlari bo'yicha uzluksiz ta'limni rivojlantirish.
4. Raqamli makonda ayollar va bolalarni himoya qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish.
5. Fuqarolik jamiyati institutlarining profilaktik faoliyatini kengaytirish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, gender zo'ravonligining oldini olishning eng samarali modeli huquqiy choralarni ma'naviy-ma'rifiy, aksiologik va institutsional mexanizmlar bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi. Bunday yondashuv inson qadrini jamiyat taraqqiyotining oliy mezoni sifatida qaror toptirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari gender zo'ravonligi muammosini faqat huquqiy yoki sotsiologik hodisa sifatida emas, balki inson qadri va ijtimoiy adolat tizimining aksiologik inqirozi sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi. Zamonaviy falsafiy konsepsiyalar tahlili shuni

tasdiqlaydiki, insonning sha'ni va qadr-qimmati har qanday demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati hisoblanadi. Shu sababli gender zo'ravonligi shaxsning jismoniy daxlsizligiga tajovuz qilish bilangina cheklanmay, uning erkinligi, ijtimoiy maqomi, ma'naviy dunyosi va fuqarolik subyekti sifatidagi mavqeiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [14]. Aksiologik nuqtai nazardan zo'ravonlikning eng xavfli jihati shundaki, u jamiyatda insonning qadri to'g'risidagi tasavvurlarni deformatsiyalaydi. Zo'ravonlikka nisbatan murosali munosabatning shakllanishi huquqiy ongning pasayishiga, ijtimoiy ishonchning zaiflashishiga va fuqarolik birdamligining yemirilishiga olib keladi. Shu bois gender zo'ravonligini kamaytirish faqat jazolash mexanizmlarini kuchaytirish orqali emas, balki inson qadri va gender tengligi qadriyatlarini jamiyat ongiga chuqur singdirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, gender zo'ravonligining oldini olishning eng samarali modeli uch asosiy komponentning uyg'unligiga tayanadi: huquqiy kafolatlar, ijtimoiy profilaktika va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya. Ayniqsa, Skandinaviya davlatlari, Kanada va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida gender siyosati inson huquqlari va inson qadrini ta'minlash konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda [15].

O'zbekiston tajribasi ham ushbu yo'nalishda muhim ijobiy o'zgarishlarni namoyon etmoqda. So'nggi yillarda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, gender tengligini ta'minlash hamda ayollarning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar inson qadrini yuksaltirish siyosatining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq gender zo'ravonligining ayrim yashirin shakllari, ayniqsa psixologik, iqtisodiy va raqamli zo'ravonlik ko'rinishlari hanuzgacha dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Muallifning fikricha, gender zo'ravonligini bartaraf etishning eng muhim sharti jamiyatda yangi aksiologik paradigma – inson qadri ustuvorligi tamoyilini mustahkamlashdir. Bunda davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, oila, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Inson qadri jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylangan sharoitdagina gender zo'ravonligining barcha shakllariga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni shakllantirish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari gender zo'ravonligi inson qadriga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa ekanligini tasdiqladi. Gender zo'ravonligining oldini olish inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Maqolada gender zo'ravonligining aksiologik mohiyati ochib berilib, uning inson qadri, erkinlik, tenglik va ijtimoiy birdamlik bilan uzviy bog'liqligi asoslandi. Xalqaro tajriba hamda O'zbekiston amaliyoti tahlili gender siyosatini faqat

huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki ma'naviy, madaniy va institutsional yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- gender zo'ravonligining raqamli shakllarini chuqur ilmiy tadqiq etish;
- gender madaniyatini uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiya qilish;
- fuqarolik jamiyati institutlarining profilaktik salohiyatini kuchaytirish;
- inson qadri konsepsiyasiga asoslangan aksiologik tarbiya modelini ishlab chiqish;
- gender tengligini baholashning yangi falsafiy indikatorlarini yaratish.

Shunday qilib, gender zo'ravonligi va inson qadri o'rtasidagi munosabatlarni aksiologik nuqtai nazardan tadqiq etish nafaqat ijtimoiy falsafa fanini yangi nazariy xulosalar bilan boyitadi, balki Yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosatini ilmiy asoslashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Giddens A. Sociology. Cambridge: Polity Press, 2021.
2. UN Women. Facts and Figures: Ending Violence against Women. New York: UN Women, 2024.
3. Fromm E. The Heart of Man. New York: Harper & Row, 1964.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. Cambridge University Press, 2012.
6. Nussbaum M. Women and Human Development. Cambridge University Press, 2000.
7. Butler J. Gender Trouble. New York: Routledge, 1990.
8. Bekmurodov M.B. Ijtimoiy taraqqiyot va inson qadri. Toshkent, 2022.
9. Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches. Sage Publications, 2018.
10. Rawls J. A Theory of Justice. Harvard University Press, 1999.
11. UNESCO. Ending Online Violence against Women and Girls. Paris, 2023.
12. Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.
13. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-561, 2019.
14. Nussbaum M. Creating Capabilities: The Human Development Approach. Harvard University Press, 2011.
15. United Nations. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). New York: United Nations, 1979.
16. Butler J. Undoing Gender. New York: Routledge, 2004.

17. Bekmurodov M.B. Ijtimoiy taraqqiyot va inson qadri. Toshkent, 2022.
18. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
19. O'zbekiston Respublikasining "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni. 2019.
20. UN Women. Progress on the Sustainable Development Goals: The Gender Snapshot 2024. New York: UN Women, 2024.